



**“USTOZ-SHOGIRD” AN’ANASI ASOSIDA TASVIRIY SAN’AT  
YO‘NALISHIDA IJODIY VA KASBIY FAOLIYATNI  
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI**

*Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi tomonidan joriy etilgan “ustoz-shogird” tizimi hamda “O’rgatib-o’rganamiz” loyihasi asosida talabalarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash tajribasi yoritilgan. Ayniqsa, “Akvarel maktabi” to‘garagi misolida ijod, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Maqolada ushbu yondashuvning ahamiyati, afzallikkari hamda istiqboldagi takliflar ilmiy asosda tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ustoz-shogird tizimi, tasviriy san’at, ijodiy faoliyat, pedagogik tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotlar, “O’rgatib-o’rganamiz” loyihasi, Akvarel maktabi, kasbiy kompetensiyalar, innovatsion yondashuvlar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy-ijodiy salohiyatini rivojlanirish, ularni amaliyotga tayyorlash va mustaqil fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, tasviriy san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash, ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy faoliyatga bo‘lgan mas’uliyat hissini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi talabalari “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professor-o‘qituvchilari bilan individual ishlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayonda “ustoz-shogird” an’anasi asosida talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga



shogird tamoyili samarali qo'llanilmoqda. Ushbu tizim orqali kafedra talabalari sezilarli yutuqlarga erishmoqdalar. Xususan, kafedra huzurida faoliyat yuritayotgan turli to'garaklar doirasida talabalar muntazam ijodiy mashg'ulotlar olib borib, amaliy natijalarga erishmoqda.

2023–2024-o'quv yili uchun qabul qilingan 23/1 va 23/2-guruh talabalarini ham ustoz-shogird tizimi asosida ilmiy va ijodiy faoliyatni amalga oshirib kelmoqdalar. Bu esa talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi, deyish mumkin. Talabalarning ijodiy ishlari turli ko'rgazmalarda namoyish etilib, o'z o'rmini topdi. Ularning ilmiy maqolalari va tezislari xalqaro jurnallarda chop etildi, shuningdek, turli festival va tanlovlarda faxrli o'rnlarni egallab kelishmoqda.

Mazkur yondashuvning samarasi sifatida, ustoz va shogirdlar hamkorligida "o'rgatib-o'rganamiz" loyihasi doirasida "Akvarel maktabi" tashkil etildi. Ushbu tashabbus fakultet hayotida muhim yangilik va yutuqlardan biri bo'ldi.

"O'rgatib–o'rganamiz" loyihasi uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Loyihaning bosh maqsadi — tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini jadallashtirishdan iborat. Shuningdek, "o'qituvchi–talaba–o'quvchi" o'zaro ta'sir tizimini shakllantirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko'zda tutiladi. Talabalarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish, kasbiy faoliyat mohiyati va uning mas'uliyati to'g'risida chuqur tasavvur hosil qilish orqali ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish ushbu loyihaning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

#### Vazifalari:

- Tasviriy san'at ta'limida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni ilmiy asosda tasniflash bo'yicha talabalarni o'rgatish;
- Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalgan etish;
- Talabalarning tashabbusi bilan turli to'garaklar va kichik guruhli "minito'garaklar"ni tashkil etish;



- O‘quvchilarning ijodiy ishlari asosida ko‘rgazmalar uyushtirish va ularni muntazam ravishda tashkil etish.

Kutilayotgan natijalar: Loyiha natijasida talabalar ijodiy ko‘nikmalarni egallab, kasbiy faoliyatga tezroq tayyorlanadilar. Ularning mustaqil va ijodiy fikrlash salohiyati oshadi. “Ustoz–shogird” tizimini joriy etish orqali “o‘quvchi–talaba–o‘qituvchi” o‘rtasida samarali teskari aloqa yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa turli vaziyatlarga moslasha oladigan, kasbiy faoliyatda muhim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, talabalar pedagogik faoliyatga oid asosiy kompetensiyalarni o‘zlashtiradi, ularning axloqiy fazilatlari va kasbiy xulq-atvori bosqichma-bosqich rivojlanadi.

“O‘rgatib–o‘rganamiz” loyihasining asosiy afzalliklaridan biri — unda ilgari surilayotgan yondashuvlarning integrativ xususiyatga ega ekani bilan izohlanadi. Loyihada “ustoz–shogird” tamoyili asosidagi an’anaviy ta’lim usullari zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu yondashuv nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning individual qobiliyatlarini ochib berish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida amalga oshirilayotgan mashg‘ulotlar nazariy bilimlar, amaliy mahorat, kasbiy kompetensiyalar va shaxsiy rivojlanishni bir butun holda ko‘zda tutadi. Xususan, to‘garaklar va “minito‘garaklar” faoliyati davomida talabalar o‘z ustozlari rahbarligida muayyan mavzularda ilmiy-tadqiqot olib boradilar, amaliy ijodiy ishlarni bajaradilar va o‘zaro tajriba almashadilar.

Shu bilan birga, loyiha “talaba-talabaga ustoz” modeli ham keng tatbiq etilmoqda. Bu model o‘quvchilarga yaqin yoshdagi talabalar tomonidan o‘rgatilishiga asoslanadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilarda bilimlarni qabul qilishga bo‘lgan ishtiyoq va ishonch hissi kuchayadi. Talabalar esa pedagogik faoliyatga tayyorgarlik bosqichida real amaliy tajriba orttiradilar.

### **Kasbiy faoliyatga tayyorlovning psixopedagogik jihatlari.**

Loyihaning metodologik asoslari orasida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, kasbiy mas’uliyat hissini chuqurlashtirish, hamda ijodiy



yondashuvni rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayonlarda quyidagi psixopedagogik yondashuvlar asosiy omil sifatida ko'zga tashlanadi:

**Refleksiv o'rganish:** Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga o'rganadilar.

**Kooperativ ta'lism:** Guruhli ishlarda o'zaro yordam, fikr almashish va hamkorlik asosida kasbiy-ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

**Ijodiy yondashuv:** San'at sohasidagi faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion tafakkur, yangicha yechim topish, vizual tasvir orqali fikr bildirish talabalarning yetakchi kompetensiyalaridan biriga aylanadi.

### **Loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.**

Loyiha doirasida yo'lga qo'yilgan "Akvarel maktabi" nafaqat ta'limiylar va estetik maqsadga xizmat qilmoqda, balki amaliy-iqtisodiy jihatdan ham talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Talabalar tomonidan yaratilgan ijodiy asarlarning fakultetga tashrif buyurgan mehmonlarga esdalik sifatida taqdim etilishi, shuningdek, ularni ko'paytirish va ishlab chiqarish orqali iqtisodiy faoliyatga yo'naltirish — ta'lim bilan ishlab chiqarish integratsiyasining real namunasi hisoblanadi.

Ushbu yondashuv talabalarda nafaqat ijodiy va pedagogik ko'nikmalarni, balki tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Talabalar tomonidan tashkil etilgan akvarel maktabi ustozlar ko'magi asosida boshqa talabalarga o'rgatiladi. Ushbu to'garak faoliyati davomida talabalar o'z tengdoshlari bilan birgalikda ijodiy asarlar yaratishni o'rganadi hamda fakultetga tashrif buyurgan mehmonlarga estalik tariqasida sovg'a qilishadilar. Keyinchalik esa ishlab chiqarish orqali ko'plab universitetlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yiladi. Buning natijasida talabalar ijodiy qobiliyatini oshiribgina qolmay moddiy taraflama ham o'zlarini rag'batlantirib borishadi. Bunday imkoniyatlar nafaqat akvarel maktabi a'zolarida balki kafedra tomonidan tashkil etilgan barcha to'garaklarda mavjuddir.

### **Xulosa.**



Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "ustoz-shogird" tizimi va "O'rgatib-o'rganamiz" loyihasi zamonaviy ta'limning dolzarb masalalariga amaliy yechim taklif etuvchi samarali tashabbus sifatida e'tirof etilishi mumkin. Mazkur loyiha orqali talabalar nafaqat kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlanmoqda, balki pedagogik mahorat, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va mehnatga bo'lgan mas'uliyat hissini chuqur o'zlashtirmoqdalar.

Talabalar o'rtasida ilg'or tajriba almashinushi, kichik guruhlarda ishlash, amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va real sharoitda sinab ko'rish imkoniyatining yaratilishi ularning kasbiy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, "Akvarel maktabi" misolida ko'rilgan natijalar — ta'lim, ijod va ishlab chiqarish integratsiyasining ijobiy tajribasi sifatida qaralishi mumkin.

### **Takliflar.**

1. **Ustoz–shogird tizimini kengaytirish:** Ushbu tizimning samaradorligini inobatga olgan holda, boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham analog loyihalarni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

2. **Loyihaning raqamlashtirilgan formatini ishlab chiqish:** "O'rgatib–o'rganamiz" loyihasining metodik va amaliy materiallari raqamli platformalar orqali keng auditoriyaga taqdim etilishi lozim. Bu esa tajribaning boshqa hududlarga tarqalishiga xizmat qiladi.

3. **Ijodiy asarlarni tijoratlashtirish:** Talabalar tomonidan yaratilgan mahsulotlarni savdo maydonlariga olib chiqish, onlayn ko'rgazmalar tashkil etish orqali ularni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4. **Kafedrada ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish:** Talabalar ishtirokidagi ilmiy izlanishlar, maqolalar, tadqiqotlar yagona platformada to'plansa, kafedra ilmiy salohiyati va innovatsion faolligi yanada ortadi.

5. **Pedagogik amaliyotlar integratsiyasini kuchaytirish:** Loyerha doirasida ishlab chiqilgan model maktabgacha va umumta'lim muassasalaridagi amaliyot dasturlariga tatbiq etilishi orqali ko'lam kengaytirilishi lozim.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиев, Д. (2023). Кластер ёндашувига асосланган ўқитувчиликнинг талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги аҳамияти. *International scientific and practical conference on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, 1(01).
2. Бердиев, Д. А. (2023). Кластер ҳамкорлигига ташкил этилган тасвирий санъат тўгаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти. *Innovative developments and research in education*, 2, 15.
3. Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi. (2024). Akvarelda mакtab o‘quvchilariga manzara ishlashni o‘rgatish. IQRO INDEXING, 13(01), 68-71.
4. Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi. (2025). Artistic expression capabilities of watercolor. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(4), 24–26.